

O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI RIVOJLANISHINING STATISTIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI

*O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya
akademiyasi 2-kurs tinglovchisi
Avazova Gullola Abdioxatovna*

Annotation:

Ushbu maqolada O'zbekistonda madaniyat va san'at muassasalarining rivojlanishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Madaniyat va san'at sohasi mamlakatning ma'nnaviy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'yinab, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish, milliy merosni saqlash va ijodiy salohiyatni rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Maqolada madaniyat va san'at muassasalarining soni, ularga ajratilgan moliyaviy mablag'lar, xodimlar soni hamda aholi tomonidan foydalanish darajasi kabi ko'rsatkichlar o'r ganiladi. So'nggi yillardagi islohotlar natijasida madaniy muassasalar infratuzilmasining yangilanishi, yangi teatrлari, muzeylar, kutubxonalar va ijodiy markazlarning tashkil etilishi jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, madaniyat va san'at sohasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, davlat dasturlari, qonunchilik bazasi va xususiy sektor ishtiroki masalalari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, statistik tahlil, O'zbekiston, rivojlanish, madaniyat muassasalari, san'at muassasalari, iqtisodiy ko'rsatkichlar, davlat dasturlari, ijodiy faoliyat, milliy meros, infratuzilma, madaniy islohotlar, teatr, muzey, kutubxona, ijodiy markaz.

Abstract.

This article analyzes the development of cultural and artistic institutions in Uzbekistan and their impact on social progress based on statistical data. The cultural and artistic sector plays a crucial role in the country's spiritual and economic development, contributing significantly to meeting the population's cultural needs, preserving national heritage, and fostering creative potential.

The article examines key indicators such as the number of cultural and artistic institutions, allocated financial resources, the number of employees, and the level of public engagement. The study also explores the impact of recent reforms on the modernization of cultural infrastructure, including the establishment of new theaters, museums, libraries, and creative centers. Additionally, the role of state programs, legislative frameworks, and private sector involvement in the development of the cultural and artistic sphere is discussed.

Keywords: culture, art, statistical analysis, Uzbekistan, development, cultural institutions, artistic institutions, economic indicators, state programs, creative activity, national heritage, infrastructure, cultural reforms, theater, museum, library, creative center.

Kirish

O‘zbekiston madaniyati va san’ati mamlakatning milliy o‘ziga xosligi va ma’naviy merosini aks ettiruvchi muhim sohalardan biri hisoblanadi. Madaniyat va san’at muassasalari xalqning estetik didini shakllantirish, ijodiy salohiyatni rivojlantirish hamda milliy va jahon madaniyatini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu muassasalar teatrlar, muzeylar, kutubxonalar, san’at galereyalari, madaniyat markazlari va boshqa tashkilotlarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakat mustaqillikka erishgandan so‘ng, madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, ko‘plab islohotlar amalga oshirildi. Davlat dasturlari va qonunchilik bazasi orqali madaniy muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, ularning faoliyatini modernizatsiya qilish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, xususiy sektor va xorijiy investitsiyalar ishtiroki oshib, madaniyat va san’atning rivojlanishida yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi.

O‘zbekistonda madaniyat va san’at muassasalarining rivojlanishi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, so‘nggi yillarda mazkur sohani modernizatsiya qilishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Prezident qarorlari va davlat dasturlari asosida madaniy merosni asrab-avaylash, teatr, muzey, kutubxona va boshqa san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini

mustahkamlash hamda ularning faoliyatini takomillashtirish choralari ko‘rilmoxda. 2020-yildan boshlab madaniyat va san’at muassasalarini rivojlantirishga ajratilgan mablag‘ hajmi sezilarli darajada oshdi. Xususan, Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilib, uning doirasida ko‘plab teatrлarga zamonaviy texnika va uskunalar yetkazib berildi. 2021-yilda madaniyat muassasalarining umumiyligi soni 6 500 dan ortiqni tashkil etdi, shundan: 50 dan ortiq teatr, 127 dan ortiq muzey, 11 500 dan ortiq kutubxona, 798 dan ortiq madaniyat uylari, 69 dan ortiq konsert tashkilotlari. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik doirasida YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan madaniyat va san’at sohasida hamkorlik rivojlantirilmoqda. Shu jumladan, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlardagi tarixiy yodgorliklar YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilib, ularning restavratsiya ishlari olib borildi.

Jadval 1

O‘zbekistondagi madaniyat va san’at muassasalarining rivojlanishi

Yil	Muze ylar soni	Teat rlar soni	Kon sert tashkilotl ari soni	Kutubxo nalar soni	Mada niyat markazlari soni
1 19	20	100	50	72	11587 833
2 20	20	105	49	72	11385 806
3 21	20	127	50	69	11500 798
4 22	20	134	50	70	12518 824
5 23	20	140	50	81	13046 836

Yuqoridagi jadvalda O‘zbekistonda madaniyat va san’at muassasalarining 2019–2023 yillardagi o‘sish dinamikasini ko‘rsatadi:

- Muzeylar soni 100 tadan 140 tagacha o‘sib, madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishga qaratilgan islohotlar natijasini ko‘rsatmoqda.
- Konsert tashkilotlari soni 2019-yilda 72 ta bo‘lsa, 2023-yilga kelib 81 taga yetgan.
- Kutubxonalar soni barqaror o‘sib, 2023-yilda 13 046 taga yetgan, bu esa aholining bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq.
- Madaniyat markazlari soni 833 tadan 836 tagacha oshib, madaniy tadbirlarni tashkil etish va san’atni targ‘ib qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Teatrlar va muzeylar soni nisbatan kam bo‘lsa ham, ularning o‘sishi barqaror kechmoqda. Kutubxonalar, madaniyat markazlari va san’at maktablari esa aholining madaniy-ma’naviy ehtiyojlarini qondirishda katta ahamiyat kasb etganligi sababli ko‘payishda davom etmoqda.

Ushbu o‘sish davlat tomonidan madaniyat va san’at sohasiga qaratilayotgan e’tibor hamda infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar natijasi ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda madaniyat va san’at muassasalarining rivojlanishi so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada qator islohotlar amalga oshirilib, muhim natjalarga erishildi. 2017-yilda qabul qilingan “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror asosida mamlakatimizda zamonaviy madaniyat va san’at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

So‘nggi besh yilda O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasida davlat boshqaruvi masalalari atroflicha tahlil qilinib, ushbu sohada samaradorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Madaniyat va san’at sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihibarini amalga oshirish orqali ushbu sohalarning rivojlanishiga ko‘maklashish choralarini ko‘rildi. Madaniyat va san’at sohasidagi ta’lim

yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilib, 38 ta yo‘nalish bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu chora-tadbirlar natijasida O‘zbekistonda madaniyat va san’at muassasalarining rivojlanishi sezilarli darajada yaxshilandi. Kelgusida ushbu sohalarni yanada rivojlantirish va xalqimizning madaniy-ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun qo‘sishimcha chora-tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

So‘nggi yillarda madaniyat va san’at muassasalarining moliyaviy ta’minoti oshirilmoqda. Masalan, 2022-yilda madaniyat va san’at sohasi uchun ajratilgan mablag‘ 2,5 trillion so‘mni tashkil etdi.

Ushbu mablag‘lar quyidagi yo‘nalishlarda sarflandi:

- ✓ yangi madaniyat markazlarini qurish – 750 milliard so‘m,
- ✓ mavjud muassasalarni ta’mirlash va jihozlash – 900 milliard so‘m,
- ✓ ijodiy loyihalarni moliyalashtirish – 350 milliard so‘m,
- ✓ xorijiy tajribalarni joriy etish va xalqaro tadbirlarda ishtirok etish – 500 milliard so‘m.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi natijasida ko‘plab madaniyat va san’at muassasalari xususiy sarmoyalar yordamida faoliyatini kengaytirdi. Xusan, Toshkent, Samarqand va Farg‘ona shaharlarida yangi madaniyat va istirohat bog‘lari, muzeylar ochilib ularning soni ortdi.

O‘zbekistonda madaniyat va san’at muassasalarini rivojlantirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirildi. 2017-yildan buyon qabul qilingan “Madaniyat to‘g‘risida”gi qonun, “San’at va madaniyat muassasalarining faoliyatini takomillashtirish dasturi” kabi hujjatlar sohaga katta ta’sir ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning asosiy natijalari quyidagilardan iborat: Madaniyat va san’at sohasining huquqiy asoslari mustahkamlandi. 2019-yilda “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish” qonuni qabul qilinib, tarixiy obidalarning asrash tizimi kuchaytirildi. O‘zbek san’atkorlarining xalqaro maydondagi ishtiroki kengaydi. O‘zbekistonlik teatr truppalari va musiqa jamoalari xalqaro festivallarda ishtirok etib, yuksak mukofotlarga sazovor bo‘lmoqda. Axborot texnologiyalari madaniyat sohasida

keng joriy etildi. Masalan, 2022-yilda O‘zbekistonda elektron kutubxonalar tizimi keng joriy qilinib, 500 mingdan ortiq raqamlashtirilgan kitob va manbalar aholi foydalanishi uchun taqdim etildi. Milliy madaniy tadbirlarning soni oshdi. Har yili “Ipak yo‘li” xalqaro musiqiy festivali, “Sharq taronalari” musiqiy festivali va boshqa an’anaviy tadbirlar keng nishonlanmoqda.

Madaniyat va san’at muassasalari O‘zbekistonda milliy o‘ziga xoslik va tarixiy merosni saqlab qolish, aholining ma’naviy ehtiyojlarini qondirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan: madaniyat muassasalarining infratuzilmasini yanada modernizatsiya qilish, xususiy sektor va investorlar ishtirokini kengaytirish, axborot texnologiyalarini madaniyat va san’at sohasida keng joriy etish, xalqaro festival va san’at anjumanlarida faol ishtirok etish, ijodiy ta’lim va yosh san’atkorlarni qo’lllab-quvvatlash tizimini rivojlantirish. Shu bilan birga, O‘zbekistonning madaniy salohiyatini yanada kengroq targ‘ib qilish uchun milliy madaniyat markazlarini xalqaro maydonga olib chiqish, xorijiy davlatlar bilan madaniy aloqalarni mustahkamlash va mahalliy san’atkorlarning dunyo sahnasida faol ishtirokini ta’minalash muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston madaniyat va san’at muassasalarining bugungi holati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinib, statistik ma’lumotlar asosida ularning jamiyatdagi o‘rni yoritildi. Bu boradagi islohotlar va ularning natijalari kelajakda ham ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Xulosa

O‘zbekistonda madaniyat va san’at muassasalarining rivojlanishi so‘nggi yillarda davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu sohaning taraqqiy etishi uchun qator islohotlar amalga oshirildi, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy qilindi, shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirildi. Natijada teatr, muzey,

kutubxona va boshqa madaniyat muassasalarining faoliyati yaxshilanib, ularning soni ortdi.

Shuningdek, madaniyat va san'at sohasidagi davlat dasturlari va xalqaro hamkorlik doirasida O'zbekistonning milliy merosi va madaniy qadriyatlari keng targ'ib qilinmoqda. Madaniy muassasalarining modernizatsiya qilinishi va axborot texnologiyalarining joriy etilishi aholi uchun madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirdi.

Kelajakda madaniyat va san'at muassasalarining yanada rivojlanishi uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsiyalar hajmini oshirish, yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu boisdan, bu sohadagi islohotlar davom ettirilishi rejalashtirilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi O'zbekiston madaniyat va san'atining xalqaro maydondagi mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Takliflar:

O'zbekistonda madaniyat va san'at muassasalarining yanada rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Teatrlar, muzeylar, kutubxonalar va madaniyat markazlarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va zamonaviy san'at maskanlarini tashkil etish lozim.
- Xususiy sektor va xorijiy investorlarni jalg' etish orqali madaniyat muassasalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, nodavlat teatrlar va ijodiy markazlar sonini ko'paytirish muhim.
- Elektron kutubxonalar va muzeylarning virtual ekskursiyalarini yaratish, san'at asarlarini raqamlashtirish hamda aholi uchun onlayn xizmatlar ko'lagini kengaytirish zarur.
- San'atkorlar va ijodiy jamoalarni moliyaviy rag'batlantirish, ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun xorijiy tajribalarni joriy qilish hamda madaniyat sohasi mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish lozim.

– O‘zbekistonning boy madaniy merosini xorijiy mamlakatlarda keng targ‘ib qilish, xalqaro festivallar, san’at anjumanlari va ijodiy hamkorlik dasturlarida faol ishtirok etish zarur.

– Respublikaning barcha viloyatlarida, ayniqsa, qishloq joylarida zamonaviy madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish, aholining madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

– San’at va madaniyat sohasida startaplarni rivojlantirish, yangi ijodiy g‘oyalarni ilgari surish va innovatsion texnologiyalarni san’atga integratsiya qilish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish muhimdir.

– O‘zbek milliy san’atini zamonaviy san’at shakllari bilan uyg‘unlashtirish, yosh san’atkorlarni innovatsion va eksperimental loyihalar orqali qo‘llab-quvvatlash lozim.

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali O‘zbekistonda madaniyat va san’at muassasalari yanada rivojlanib, jamiyatning ma’naviy saviyasi oshishiga, milliy merosning asrab-avaylanishiga hamda xalqaro miqyosda madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. (2017). “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”. Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi. (2023). “Madaniyat va san’at muassasalarining rivojlanishi bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar”. www.stat.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. (2020). “Madaniyat va san’atni rivojlantirish davlat dasturi”. Toshkent: Madaniyat vazirligi nashriyoti.
4. Xasanov, A., & Raximova, D. (2021). “O‘zbekistonda madaniyat va san’at muassasalarining rivojlanish tendensiyalari”. *O‘zbekiston iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*.
5. Karimov, Sh. (2022). “Davlat-xususiy sheriklik asosida madaniyat muassasalarini rivojlantirish”. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*.
6. YUNESKO. (2022). “Madaniyat va san’atni rivojlantirish bo‘yicha global strategiyalar”. www.unesco.org.

7. Jahon banki. (2023). “O‘zbekistonda madaniyat va san’at infratuzilmasining rivojlanishi bo‘yicha hisobot”. www.worldbank.org.
8. Xolmirzayev, D. (2021). “Madaniyat va san’at muassasalarining innovatsion rivojlanishi”. Toshkent: Iqtisodiyot va biznes instituti.
9. CyberLeninka elektron ilmiy kutubxonasi. (2023). “Madaniyat va san’at sohasi bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami”. www.cyberleninka.ru.
10. “Xalq so‘zi” gazetasi. (2023). “O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasi rivoji bo‘yicha maqolalar to‘plami”. www.xalqsozi.uz.